



DUAL TA'LIMNING YOSHLARGA TA'SIRI

Nurmatova Gulbaxor Xabijanovna

Andijon tuman 3-son kasb hunar maktabi

Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- December 2023 yil

Ma'qullandi: 23- December 2023 yil

Nashr qilindi: 26-December 2023 yil

KEY WORDS

dual ta'lim, vazifalar, nizom, imkoniyatlar, dasturlar.

ABSTRACT

Ushbu maqola dual talim va uning imkoniyatlari haqida bo'lib ta'limida o'qitishning dual tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi ishlab chiqilgan nizomlar muhim ahamiyatga ega. Maqolada dual ta'limni tashkil etishning vazifalari yoritilgan.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali sanoat talablariga javob beradigan ishchilarni tayyorlash orqali hududlarining investitsiya jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish vositalaridan biri bu ikki tomonlama o'qitish tizimidir.

Duallik "ikkilik", "bitta tashkiliy yaxlitlik" ma'nosini anglatadi. Ushbu ta'lim shakli ijtimoiy sheriklikning mahsuli sifatida paydo bo'ldi, bu mehnat bozori talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha davlat va ish beruvchilar o'rtasidagi yaqin hamkorlik mexanizmi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Dual ta'lim tizimining afzalligi mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro aloqasida muhim o'rin darajadagi amaliy yo'nalish va natijada bitiruvchilarning bandligini ta'minlaydi[2].

Dual ta'lim tizimining samarali natija berishi va hozirgi kunda bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib mehnat bozoriga sifatli kadrlarni yetkazibberish oxirgi yillarda yurtimizda muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Shu o'rinda "Ta'lim to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qullab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 mart №163 sonli "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari xaqida " gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilidan professional ta'lim tizimida dual ta'lim tashkil etiladi. Dual ta'lim – bu ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib boruvchi tizimdir[2].

Dual ta'limni tashkil etish uchun hokimliklar va manfaatdor vazirliklar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi va taklif tayyorlanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili 1 iyulgacha dual ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlanadigan ta'lim

muassasalarini belgilaydi. Tanlangan ta'lim muassasalari belgilangan kvotalar bo'yicha o'quvchilarni qabul qiladi. Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma tashkilot va o'quvchi o'rtasida ham tuziladi. Bunda o'quvchi uchun tashkilotda muayyan ish o'rni ajratiladi. O'quvchilar bir haftada kamida ikki kun ta'lim oladi qolgan kunlar ishlaydi. O'quvchiga ishlagan kunlari uchun ish haqi to'lanadi.

O'quvchilar uchun dual ta'lim - bu bilim olish uchun ajoyib imkoniyat barqarorlik va kelajakka ishonch. Ushbu tizim ta'lim oluvchilarning kasbiy va mehnat faoliyatiga moslashishlarida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, o'quvchilarda kasbiy mas'uliyat va javobgarlik hissini oshirib, mehnat jamoasiga oson moslashish imkonini beradi. Ta'lim muassasalarida o'quvchilar ishlab chiqarish to'g'risida faqat nazariy tushunchalarga ega bo'lib, keyinchalik mehnat faoliyatiga amaliy moslashishlari qiyin kechadi. Shunday qilib hamkorlikdagi ikki tomonlama ta'lim o'quvchilarni kelgusidagi muvaffaqiyatlari uchun tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Dual ta'limni kasb-hunar ta'limi tashkilotlarining o'quv jarayoniga joriy etish ularning istiqbolli kelajagi uchun qo'yildigan eng muhim qadam sanaladi [3].

Bunda, mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi korxona (tashkilot)lar dual ta'lim joriy etish bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taklif kiritishlari mumkin.

Dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Dual ta'lim tashkil etilishi ko'zda tutilayotgan ta'lim muassasalari imkoniyatlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan ekspertlar ishtirokida o'rganilishi mumkin. Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchilar dual ta'limga o'qishini ko'chirish taqiqlanadi. Shuningdek, Ta'lim muassasasi va korxona (tashkilot) o'rtasida yoki korxona (tashkilot) va o'quvchi (lar) o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinganda o'quvchi(lar) o'qishi mos ta'lim darajasidagi kunduzgi ta'lim shakliga o'tkaziladi. Dual ta'limda o'quvchilar to'lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida ta'lim olishlari mumkin. To'lov-kontrakt miqdori tizimida Ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Loyihada bildirilishicha, dual ta'limni tashkil etishning maqsad - O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik va kichik biznes sub'ektlarida aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish uchun mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: Dual ta'lim - ta'lim dasturining nazariy, o'quv-amaliy qismi professional ta'lim muassasasida, malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qism korxona (tashkilot)da tashkil etiladigan o'qitish turi;

Dual ta'lim dasturi esa ta'lim muassasasi va korxona (tashkilot)dabitiruvchiga muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarishga qaratilgan professional ta'lim tayyorgarligining asosiy mazmunini belgilovchi ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, o'quv dastur (modul)lari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to'plamidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 mart №163 sonli "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari xaqida " gi qarori.
3. Sinitsyn Yu. N. Dual ta'lim postindustrial ta'limning bir qismi sifatida. "Dual ta'lim: tajriba, muammolar, istiqbollar" Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Krosnadar 2019 6-11-modda.
4. Tereshchenkova E.V. Dual ta'lim tizimi mutaxassislar tayyorlash uchun asos sifatida // "Konsepsiya" ilmiy-metodik elektron jurnali. – 2014. – 4-son (aprel). – 41–45-betlar.

